

**“Farg‘onaazot” AJda 2022-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining
amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT ***

1. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot¹

“Farg‘onaazot” AJ Komplayens nazorat xizmati tomonidan 2022-yil mobaynida tasdiqlangan yillik reja asosida quyidagi tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kungi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5177-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, internet tarmog‘iga joylashtirilgan <http://azot.vakantlar.uz> havola orqali ishga tushiriluvchi dastur orqali korxonaga ishga qabul qilish “Farg‘onaazot” AJ boshqaruv raisining 2021-yil 12-avgust kungi 1259-sonli buyrug‘i bilan joriy etilgan hamda ishchi komissiya a‘zolari tasdiqlangan.

2022-yil Prezidentimiz tomonidan “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan, ishchi xizmatchilarning muammolarini o‘z vaqtida hal qilish uchun jamiyat boshqaruv raisining ko‘rsatmasiga binoan barcha sexlar boshliqlari tomonidan o‘zlariga tegishli bo‘lgan ishchi-xodimlarni shaxsiy masalalari bo‘yicha qabul qilish kunlari belgilanib, tegishli tartibda ularni qabul qilish ishlari tizimli ravishda tashkillashtirildi.

2022-yil 21-aprelda “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisi tomonidan korxonaning yangi strukturasi tasdiqlanib, jamiyatda o‘zgarishlar bo‘lgan boshqarma va bo‘limlariga rahbar va xodimlar tegishli tartibda rasmiylashtirildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murossasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6257 Farmoni, 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177 Qarori hamda “Farg‘onaazot” AJ boshqaruvi raisi tomonidan 2021-yil 17-iyunda tasdiqlangan “Farg‘onaazot” AJda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosatining 5.4 bandi talablaridan kelib chiqib, korxonaning me‘yoriy hujjatida ko‘rsatib o‘tilgan 210 nafar xodimlar manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyani to‘ldirishdi va deklaratsiyalash natijasida 4 nafar rahbar xodimlarda

manfaatlar to‘qnashuvi hamda 6 nafar xodimlarda ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi borligi aniqlandi. Mavjud holatlar axlok komissiyasida ko‘rib chiqilib, manfaatlar to‘qnashuvi bartaraf etildi. O‘tkazilgan deklaratsiyalash natijalari korxonaga rasmiy veb saytiga joylashtirildi.

O‘tgan hisobot davrida o‘tkazilgan 12 ta xizmat surishtiruvlari jarayonida aniqlangan 6 nafar salbiy holatlar bo‘yicha to‘plangan hujjatlar qonuniy ko‘rib chiqilishi uchun prokuratura idoralariga yuborildi. Shuningdek, 5 nafar xodimlar bilan xizmat shartnomalari bekor qilindi, 7 nafariga “hayfsan” jazo choralari ko‘rildi, 18 nafariga “qattiq ogohlantirish”, 12 nafar ishchi-xodimlarning oylik maoshlaridan ma’lum bir foizdagi jarimalar ushlab qolindi.

II. Siyosat va tartib-taomillar

“Farg‘onaazot” AJ huquqshunoslik bo‘limi bilan hamkorlikda hozirgi kunga qadar 15 ta me‘yoriy hujjatlar tayyorlangan va korxonaga rahbariyati tomonidan tasdiqlangan. Ushbu me‘yoriy hujjatlar korxonaning har bir bo‘lim-bo‘linmalari hamda sexlar rahbarlariga yuborilgan hamda haftaning juma kunlari o‘tkaziladigan ma’naviyat kunlarida xodimlarga yetkazib borilmoqda.

Shuningdek, mazkur me‘yoriy hujjatlar tanishuv varaqalari orqali tanishtirib borilmoqda hamda korxonaning rasmiy veb saytiga joylashtirilgan.

Jamiyat raisining ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda o‘zbek tili bo‘yicha maslahatchisi hamda huquqshunoslik bo‘limi bilan hamkorlikda “Farg‘onaazot” AJ yangi “Xizmat odobi qoidalari” ishlab chiqilib, korxonaga boshqaruv raisining 2022-yil 6-iyundagi 980-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlandi. Ushbu me‘yoriy hujjat bilan korxonaga ishchi-xodimlarini tanishtirish maqsadida tasdiqlangan reja asosida jamiyat bo‘lim va sexlarida hamkorlikda tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Bundan tashqari, jamiyat ishchi-xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya illatiga murosasiz bo‘lish munosabatini shakllantirish, huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish maqsadida o‘quv-dasturi (115-sonli buyruq, 24.01.2022-y.) ishlab chiqilib, tasdiqlangan jadval asosida komplayens nazorat xizmati xodimlari tomonidan bo‘limlar va sexlarda o‘qitish ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, “Farg‘onaazot” AJ xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha 2022-2023-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

III. Xavf-xatarlarni baholash²

Korxonada komplayens nazorat xizmati tomonidan “ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi tavsiya va takliflari” qo‘llanmasining 4.5-bandi talablari bo‘yicha “Farg‘onaazot” AJ ijro apparatining korrupsion xavflarini baholash (“KPMG” “Yo‘l xaritasi” 5.2 bandi) ishlari amalga oshirildi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo‘yicha nisbati (“yuqori”, “o‘rta”, “past”) ko‘rsatilib, “O‘z kimyo sanoati” AJ Komplayens xizmatiga yuborildi. Amalga oshirilgan tadbirlar jarayonida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish va kamaytirish bo‘yicha takliflar berildi. Jumladan:

- Korxonaning iqtisodiy zonasida tayyor mahsulotlarni saqlash omborlarida (vakolatli omborlarida) ularni vagonlarga ortish, tarozidan o‘tkazish jarayonlarini to‘liq qamrab oladigan joylarga talon-taroj qilishni oldini olish, mexnat intizomi va texnika xavfsizligini nazorat qilish uchun mukammalashgan (modernizatsiya qilingan) videokuzatuv tizimini o‘rnatish choralarini kurish;

- Vakolatli omborlarni tanlash, tegishli tanlovlar o‘tkazish, ularni jihozlanish holatlarini tekshirish ishlarida komplayens nazorat xizmati xodimlarining qatnashishlarini ta‘minlash;

- Ishga qabul qilish va korxonada rahbar va ishchi xodimlarni lavozimdan lavozimga ko‘tarishda yoki teng lavozimga o‘tkazishda (ishdan bo‘shatish bundan mustasno) xodimlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan komplayens nazorat xizmati bilan kelishish mexanizmini belgilovchi me‘yoriy hujjatni ishlab chiqish;

- mexnat intizomiga rioya etilishi va sexlarda “mertviye dushi”larga yo‘l qo‘ymaslik uchun korxonada kirish darvozalariga elektron turniketlar o‘rnatish;

- korxonada hududida o‘g‘irliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida aniqlangan holatlarni muntazam muhokama qilib borish hamda kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbar xodimlarga nisbatan intizomiy choralar ko‘rib borish;

- logistika va transport yo‘nalishida yuk ortish va jo‘natish bo‘yicha tegishli yo‘riqnomalarni ishlab chiqish;

- Korrupsion holatlarni oldini olishda tezkorlikni ta‘minlash maqsadida komplayens nazorat xizmati hamda ichki audit birgalikda amalga oshirishlari lozim bo‘lgan tadbirlarni belgilovchi me‘yoriy hujjat ishlab chiqish;

- Korrupsion holatlarni oldini olish va yo‘l qo‘ymaslik maqsadida profilaktik tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi muvofiq munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat

boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257 Farmoni, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177 Qarori hamda "Farg'onaazot" AJ boshqaruvi raisi tomonidan 2021-yil 17-iyunda tasdiqlangan "Farg'onaazot" AJda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati "ning 5.4 bandi talablaridan kelib chiqib, korxonaning me'yoriy hujjatida ko'rsatib o'tilgan 222 nafar rahbar xodimlardan 210 nafari (91%) manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyani to'ldirishdi (12 nafari otpusk, komandirovka v.x.k).

Natijada, 4 nafar rahbar xodimlarda (ish jarayonida yaqin karindoshlarining bevosita bo'ysunishi) manfaatlar to'qnashuvi hamda 6 nafar xodimlarda (2 nafarining firmalarda ulushlari bo'lganligi hamda 4 nafarining yaqin karindoshlari ish jarayonida bevosita bo'ysunishlari) ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi borligi aniqlandi.

Mavjud holatlar jamiyatdagi axlok komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilib, manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqargan omillar bartaraf etildi. O'tkazilgan deklaratsiyalash natijalari korxonaga rasmiy veb saytga joylashtirildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Tashkilot sharnomalariga kiritish

Mahsulotlarni oldi-sotdisi va ishga qabul qilish uchun tuziladigan ikki tomonlama shartnomalarda korrupsiyaviy qonun buzilish yoki huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik maqsadida 2021-yil 20-apreldagi 556-sonli buyruq bilan "Antikorrupsionnaya ogovorka AO "Ferganaazot"" ishlab chiqilib, barcha tuzilayotgan shartnomalarga alohida bandlar kiritib borilmoqda.

Kontragentlarni tekshirish

Joriy yilda jamiyat tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq-xo'jalik, sanoat va qurilish mahsulotlarini sotib olmoqchi bo'layotgan yuridik va jismoniy shaxslardan kelib tushgan 552 ta shartnomalarda ko'rsatilgan holatlar tekshirilib, tegishli xulosalar berildi.

Korxonaga huquqshunoslik, sotishni tashkil etish va ta'minot bo'limlari bilan birga olib borilgan tadbirlar jarayonida 246 nafar kontragentlar (noinsof tadbirkorlik subyektlari) birja savdolaridan keyin o'z vaktida mahsulotlarni olib kelmaganliklari va texnik talab shartlarini to'lik bajarmaganliklari sababli hisobot davrida korxonaga tomonidan 3 mlrd 825 mln. 056 ming so'mlik jarimalar undirib olindi.

(2021-yilda undirilgan jarimalar - 3 mlrd. 715 mln 463 ming so'm, 2022-yil 10-dekabr holatiga - 3 mlrd. 825 mln 056 ming so'm.)

Ishga nomzodlarni tekshirish

Jamiyatda fuqarolarni ishga qabul qilish Nizom va nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma (1254-sonli buyruq, 11.08.2021-y.) me'yoriy hujjatlari talablari asosida tashkil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kungi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5177-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, internet tarmog'iga joylashtirilgan <http://azot.vakantlar.uz> havola orqali ishga tushiriluvchi dastur orqali korxonaga ishga qabul qilish "Farg'onaazot" AJ boshqaruv raisining 2021-yil 12-avgust kungi 1259-sonli buyrug'i bilan joriy yil 1-sentabrdan joriy etilgan hamda ishchi komissiya a'zolari tasdiqlangan.

O'tgan hisobot davrida korxonaga jami 187 nafar fuqarolar yangi dastur asosida (4-chorakda 34 nafar) ishga qabul qilindi. Shuningdek, turli sabablarga ko'ra 489 nafar shaxslar (4-chorakda 105 nafar) ishdan bo'shab ketgan. Korxonada 2101 nafar ishchi-xodimlar (4-chorakda 220 nafar) ichki ish joyini o'zgarishi munosabati bilan boshqa lavozimlarga o'tkazilgan.

Korxonada rahbariyati tomonidan haftaning har dushanba-seshanba kunlari murojaatchilarni qabul qilish ishlari amalga oshirilib, ishga kirish masalalari atroflicha o'rganib chiqilmoqda.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Jamiyat ishchi-xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya illatiga murosasiz bo'lish munosabatini shakllantirish, huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish maqsadida **o'quv-dasturi** (115-sonli buyruq, 24.01.2022-y.) ishlab chiqilib, tasdiqlangan jadval asosida kompayens nazorat xizmati xodimlari tomonidan bo'limlar va sexlarda **bevosita o'qitish ishlari** amalga oshirilmoqda.

Dastur asosida hozirgi kunga qadar quyidagi xodimlar bilan ukitish ishlari amalga oshirildi.

"Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyatida hisobot davrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha umumiy va maxsus o'qitishdan o'tgan xodimlar ro'yxati

T/r	Xodimning F.I.O	Lavozimi	O'qitish turi (shakli)	O'qitish muddati
2022-yil 1-3-choraklari davomida umumiy o'qitishdan (barcha xodimlar uchun) o'tgan xodimlar soni 2556 nafarni tashkil etadi.				
1.	Mamajonov Nodirjon Nurmatovich	Moliya bo'limi boshlig'i	"O'zkimyosanoat" AJ tashabbusi bilan o'tkazilgan	

2.	Sayfutdinov Farxod Mashrapovich	Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i	o'quv kursi ISO 37001:2016 xalqaro standarti bo'yicha korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining menejeri/ichki auditori An'anaviy shakli	Maxsus o'quv kurslari 26.04.-29.04.2022-y.
3.	Axunbaev Ibroximjon Rustamovich	Inovatsiya markazi rahbari		
4.	Maxkamova Nasibahon Umarovna	Yuridik bo'lim boshlig'i		
5.	Jabbarov G'ofurjon Vaxabovich	Komplayens nazorat xizmati boshlig'i		Maxsus o'quv kurslari 30.05.-31.05.2022-y
6.	Boboyev Shuhratjon Kamilovich	Komplayens nazorat xizmati boshlig'i yetakchi mutaxassisi		Maxsus o'quv kurslari 20.05.-21.05.2022-y
Jami 6 nafar xodim				

Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha kommunikatsiya turlari va soni quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

T/r	Aloqa kanali turi	Aloqa kanali manzili (havolasi)	Tashkil etilgan vaqti
1.	Korxonalar rasmiy veb saxifasi	www.azot.uz	2013-yil
2.	Rasmiy veb-saytdagi elektron pochta	info@azot.uz	2013-yil
3.	Ishonch telefoni	+99873 242-66-13	2020-yil
4.	Facebook ijtimoiy tarmog'idagi aloqa kanali	https://www.facebook.com/fargonaazot.uz/	2019-yil
5.	Telegram messenjeridagi aloqa kanali	https://t.me/fargona_azot	2019-yil
6.	Telegram bot kanali	@fargonaazotanticorbot	2022-yil

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar

I. 2022-yilning 1-yanvaridan 10-dekabrigha qadar korxonaning jismoniy va yuridik shaxslarni qabulxonasiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlar soni **3 nafarni** tashkil etgan.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ "Ishonch telefoni"ga korrupsiya faktlariga oid bo'lgan **2 nafar** murojaatlar tegishliligi bo'yicha o'rganilib, tegishli choralar ko'rilgan.

II. Korxonaga hamda "O'zkimyosanoat" AJga tegishliligi bo'yicha kelib tushgan murojaatlar o'z vaqtida ko'rib chiqilib, qonuniy choralar ko'rilgan. Jumladan:

1) Farg'ona shahar Sharof Rashidov ko'chasi 25/2 uy 58-xonadonda yashovchi fuqaro M.O.Numonovni 2022-yil 4-aprel kuni, Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi G. Rasulov undan 400 000 so'm pul berishni talab qilganligini xatti-harakatlaridan norozi bo'lib joriy yil aprel oyida korxonaga rahbariga murojaat etgan **yozma arizasi yuzasidan** xizmat tekshiruvi o'tkazilgan.

Natijada, korxonaga IHQB soqchisi G.D.Rasulov o'z xizmat vazifasini suiste'mol qilganligi aniqlanib, u bilan 2022-yil 5-aprel kuni korxonaning 109-sonli buyrug'i bilan **mehnat shartnomasi bekor qilingan**. Shuningdek, 4 nafar IHQB xodimlari xizmat vazifalarini sidqidildan bajarmaganliklari uchun ularning har biriga "**hayfsan**" intizomiy jazosi e'lon qilingan.

2) Jamiyat boshqaruv raisining 2022-yil 26-maydagi 913-sonli buyrug'iga asosan ishchi guruhi tuzilib, karbamid ishlab chiqarish sexining sobiq ishchisi M.Manazarovning korxonaga rahbari nomiga, shu yilning 25-may kuni **yozgan arizasida** karbamid ishlab chiqarish sexida xom-ashyo sifatida foydalanadigan ammos fos mineral o'g'itlarini talon-taroj qilinganligi holatlarini tekshirish maqsadida ichki xizmat tekshiruvi o'tkazilgan.

Ichki xizmat tekshiruvi joriy yilning 26-may kundan 2-iyun kunigacha qadar o'tkazilib, arizada ko'rsatib o'tilgan karbamid sexida ammos fos mineral ugitlarini talon-taroj qilinganlik holatiga qonuniy baho berish uchun to'plangan hujjatlar hududiy tegishliligi bo'yicha **Fargona shahar prokuraturasiga yuborilgan**.

3) "Farg'onaazot" AJning Komplayens nazorat xizmati havo ajratish sexi ishchisi Sh.Sobirovani boshqaruv raisi nomiga yo'llagan murojaatida, sexning mas'ullari shartnomalar asosida dnuokis uglerodini olish uchun kelgan shaxslardan ta'magirlik yo'li bilan pul undirish holatlari ko'rsatilganligini e'tiborga olib, bu holatlarni ochiq, xolis, shaffof va adolatli o'rganib chiqish maqsadida shu yilning 21-oktabridan 10-noyabrigha qadar ichki xizmat tekshiruvi o'tkazildi.

Olib borilgan tekshiruv ishlari davomida aniqlanishicha, ishchi Sh.Sobirovani bu murojaati pochta orqali konvertda "Farg'onaazot" AJning

manziliga, boshqaruv raisi nomiga yuborilgan bo‘lib, konvert ustiga pochtaning ikkita yumalok shtampi quyilgan. Birinchi shtamp 2022-yilning 14-oktabr kuni, ikkinchisi esa 16-oktabr kuni bilan bosilgan bo‘lib, murojaat Sh.Sobirova nomidan yozilgan, lekin imzolanmagan.

Ichki xizmat tekshiruvi davomida havo ajratish sexi ishchisi Sh.Sobirova nomidan yozilgan murojaatda ta‘magirlik alomatlari bo‘lganligi va shu sababli korxonaga dnuokis uglerodini olish uchun kelgan tadbirkorlik subyektlaridan ta‘magirlik holatlari yuzasidan ko‘rgazmalarini olish lozimligini, murojaatni yozgan shaxsni aniqlash uchun sudga-oid xatshunoslik ekspertizasi o‘tkazish, sexning moliyaviy-xo‘jalik hujjatlari yuzasidan hujjatli taftish qilish zarurati mavjudligini, bu harakatlarni amalga oshirish vakolati surishtiruv organi, ya‘ni huquqtartibot idoralari vakolatida ekanligini e‘tiborga olib, murojaatni o‘rganib chiqib, huquqiy baho berish uchun to‘plangan hujjatlar hududiy tegishlilik bo‘yicha **Farg‘ona shahar prokuraturasiga yuborildi.**

“O‘zkimyosanoat” AJ “Ishonch telefoni”ga bo‘lgan 2 nafar murojaatlar:

1) Komplayens nazorat xizmati tomonidan Andijon viloyati Baliqchi tumanida joylashgan “XAMKOR AGRO MINERAL” xususiy korxonasi hisobchisi U.Mamajonovni **“O‘zkimyosanoat” AJning “Ishonch telefoni”**ga “Farg‘onaazot” AJdan birja orqali olgan mineral o‘g‘itlarini olgani kelgan vaqtda, ya‘ni, 2021-yil 15-dekabr kuni jamiyat idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘limi xodimi J.Nizomovning unga nisbatan noto‘g‘ri xatti-harakatlaridan norozi bo‘lib qilgan murojaati yuzasidan shu yilning 15-dekabr kundan 28-dekabr kuniga qadar ichki xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan.

Natijada, U.Mamajanovni ko‘rgazmalarida ta‘magirlik alomatlari borligini va bu holatlarga huquq tartibot idoralari tomonidan huquqiy baho berilishi kerakligini e‘tiborga olib, to‘plangan hujjatlar hududiy tegishlilik bo‘yicha **Farg‘ona shahar prokuraturasiga yuborilgan.**

2) Farg‘ona viloyati Buvayda tumanida joylashgan “ISHONCh MINERAL SAVDO” MChJ rahbari A.Mamatalizodaning **“O‘zkimyosanoat” AJning “Ishonch telefoni”**ga 2022-yil 31-yanvar kuni, korxonaning Andijon viloyati Jalaquduq tumanida joylashgan 16-sonli vakolatli omboridan, birja savdolarida sotib olgan mineral o‘g‘itlarni olib kelish uchun borgan vaqtda, ombor xodimlari tomonidan qo‘pol muomilada bo‘lish hamda ta‘magirlik holatlari bo‘layotganligidan norozi bo‘lib qilgan murojaati bo‘yicha ichki xizmat surishtiruvi shu yilning 3-fevralidan 14-fevral kuniga qadar o‘tkazilgan.

Natijada, A.Mamatalizodaning ko'rgazmalarida ta'magirlik alomatlari borligini va bu holatlarga huquq tartibot idoralari tomonidan huquqiy baho berilishi kerakligini e'tiborga olib, to'plangan hujjatlar "O'zkimyosanoat" AJ Komplayens xizmati xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi orqali **Andijon viloyat prokuraturasiga yuborilgan.**

VII. Monitoring va nazorat³

O'zbekiston Respublikasi DXX Tergov boshqarmasining 2021-yil 21-may kungi 170008/2021-157LH sonli xatiga asosan korxonada boshqaruv raisining 2021-yil 30-iyuldagi 1187-sonli buyrug'i chiqarilib, jamiyatga tegishli bo'lgan sexlarda "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan korxonada moliyaviy xo'jalik faoliyatini o'rganish uchun yuborilgan guruh a'zolari bilan rejaga asosan hamkorlikda o'tkazilgan monitoring va nazorat tartibidagi tekshiruvlar davomida quyidagi sexlarda TMBLari kamomadlari aniqlangan:

- 1) 2022-yil aprel oyida RUK i UA sexida 4 mln 558 ming 753 so'm;
- 2) 2022-yil may-iyun oylarida MTS sexida 15 mln 588 ming 592 so'm;
- 3) 2022-yil iyun oyida VOXR da 37 ming 069 so'm;
- 4) 2022-yil avgust oyida AK-72 M sexida 80 ming 323 so'm;
- 5) 2022-yil sentabr oyida "Ammiak-3" sexida 121 mln 350 ming so'm;
- 6) 2022-yil oktabr oyida Vagonlarga yuk ortish sexida - 22 mln so'm;
- 7) 2022-yil oktabr oyida AS-72 Natriy nitrat sexi - 220 mln so'm;
- 8) 2022-yil oktabr oyida AK-72 M Ammiakli seletra sexi - 1 mlrd. 527 mln 600 ming so'm;
- 9) 2022-yil oktabr oyida MTS- 243 mln so'm.

Jami monitoring va tekshirish ishlari davomida aniqlangan kamomadlar - **2 mlrd. 154 mln 200 ming 741** so'mni tashkil etadi.

Barcha aniqlangan kamomadlar bo'yicha tegishli dalolatnomalar rasmiylashtirilib, DXX TB ga yuborilgan va hozirda kamomadlarni undirib olish choralari ko'rilmokda.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

O'tgan hisobot davrida (01.01.2022-y.-10.12.2022-y.) qoidabuzarliklar va korrupsion xavf-xatarlar asosan:

- 1) Korxonada omborlardagi TMBlarini saqlash va mahsulotlarni xaridorlarga yuborish soxasida;
 - 2) Xaridlarni tashkil etish soxasida;
-

- 3) Fuqarolarni ishga olish va mehnat munosabatlari soxalarida (fuqarolar murojaatining 79,1 % ishga kirish masalasida ekanligi);
- 4) Korxonalar sexlaridagi TMBlarini o'g'irlash holatlarida (kabel o'g'irliklari bo'yicha aniqlangan holatlar);
- 5) Logistika va transport soxalarida (yuklarni junatish va temir yo'l sexida aniqlangan holatlar) aniqlangan.
- 6) Korxonalar sexlaridagi TMBlari kamomadlari (monitoring va nazorat tekshiruvlari davomida aniqlangan holatlar).

Aniqlangan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi talablarning buzilganligi holatlarini oldini olish va ularga yo'l qo'ymaslik maqsadida komplayens nazorat xizmati tomonidan 12 ta ichki xizmat surushtiruvlari amalga oshirilib, tegishli takliflar berildi.

Qonunbuzarliklar to'g'risida olingan ma'lumotlar asosan 2 tasi "ishonch telefoni", 2 tasi bevosita yozma xabar berish, 9 tasi monitoring va nazorat natijalari bo'yicha olingan.

Ushbu qonunbuzarliklarni oldini olish va kelgusida yo'l qo'ymaslik maqsadida:

- 2022-yilning 6-iyun kuni, korxonalar rahbarining 980-sonli buyrug'i bilan "Xizmat odobi qoidalari" tasdiqlandi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni ragbatlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Farg'onaazot" AJ boshqaruv raisining 2022-yil 7-aprel kundan 558-sonli buyrug'i ishlab chiqilib, barcha rahbarlar va ishchi-xodimlarning e'tiboriga yetkazilib, amaliyotga joriy qilindi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi soxasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu soxada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 11-maydagi PQ 240-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Farg'onaazot" AJ boshqaruv raisining 2022-yil 18-may kundan 844-son buyrug'i ishlab chiqilib, barcha rahbar, ishchi-xodimlarning e'tiboriga ma'lumot uchun yetkazildi va amaliyotga joriy qilindi.

- "Farg'onaazot" AJ boshqaruv raisining 2022-yil 23-may kundan 898-son buyrug'i ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan tarkibiy bo'linmalarning shtat jadvaliga kiritilgan o'zgarishlarni inobatga olgan holda tegishli bo'linmalarga rahbarlarni tanlash va tayinlashda shaffoflikni ta'minlash maqsadida, korxonaning boshqaruv a'zolari va bo'linma rahbarlaridan iborat komissiya tuzilib, amaliyotga joriy qilindi. Ushbu komissiya tarkibiga Komplayens nazorat xizmati boshligi ham kiritilgan.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyul kundan "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Farg'onaazot" AJ boshqaruv raisining 2021-yil 12-avgust kundan

1259-son buyrug‘i ishlab chiqilib, ushbu buyruq talablari asosida 2021-yilning 20-avgust kundan boshlab, korxonaga ishga qabul qilish internet tarmog‘ida joylashtirilgan programmalashtirilgan dastur orqali test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar, tashkil qilingan komissiya suhbatidan o‘tgandan so‘ng ishga qabul qilinishi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu komissiya tarkibida Komplayens nazorat xizmati boshlig‘i ham kiritilgan bo‘lib, ishga qabul qilish jarayoni nazoratga olingan.

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyun kundan PF-6013-son farmonning 3.8-bandi talablarini bajarish yuzasidan, “Pora olish-berishga karshi kurashish boshqaruv tizimi” ISO № 37001-2016 xalqaro standartini korxonada joriy qilish maqsadida, “Farg‘onaazot” AJ boshqaruv raisining 2021-yil 23-sentabr kundan 1499-son buyrug‘i bilan ishchi guruh tashkil qilingan bo‘lib, mazkur guruh tomonidan doimiy ravishda korrupsion xavf-xatarni aniqlash, baholash va monitoring qilish yo‘nalishida ishlar davom ettirilmoqda.

- “Farg‘onaazot” AJ boshqaruv raisining 2022-yil 17-yanvar kundan 76-son buyrug‘i bilan, korxonaning texnik va moliyaviy holatda ta’sir ko‘rsatuvchi va javobgar bo‘lgan tarkibiy bo‘linmalar rahbarlarini, shu jumladan ularning o‘rinbosarlarining korrupsion va boshqa noqonuniy xatti-harakatlariga yo‘l qo‘yish xavfini kamaytirish maqsadida, ularni qo‘shimcha moddiy ragbatlantirish mexanizmini belgilovchi Nizom ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi.

-“Farg‘onaazot” AJ bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilgan shartnomalar matnlariga korrupsiyaga karshi bandlar kiritilishi ta’minlangan bo‘lib (556-sonli buyruq, 20.04.2021-y.), monopolist tashkilotlar hamda soxaviy korxonalar bilan tuzilayotgan shartnomalardan tashqari barcha kontragentlar Komplayens nazorat xizmati va yuridik bo‘lim bilan hamkorlikda o‘rganish ishlari tashkil qilingan (793-sonli buyruq, 27.05.2021-y.). Shu bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzilayotgan barcha shartnomalar qonuniyligi Komplayens nazort xizmati bilan kelishilmokda.

- “Farg‘onaazot” AJda korporativ kartochkadan foydalanishda korrupsion xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 10-mart kundan “O‘zbekiston Respublikasi hududida bank kartalarining chiqarilishi va muomilada bo‘lishi qoidalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash hakida”gi 28/21-son qarori talablariga muvofiq, korxonada korporativ kartadan foydalanish vakolatiga ega shaxslar, kartaga tushiriladigan eng katta summa miqdori va nima maqsadlarda sarflanishi, shuningdek, hisobdorlik tartibi hamda noqonuniy foydalanganlik uchun javobgarlik masalalarini belgilovchi Nizomni ishlab chiqish yuzasidan 2022-yilning 18-fevral kundan boshqaruv raisiga xizmat xati kiritildi va hozirda shu Nizom yuridik bo‘lim tomonidan ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, qonunbuzarliklarning oldini olish maqsadida 2022-yilning 1-yanvaridan 10-dekabrqa qadar jami 72 ta: 2 ta radio orqali profilaktik tadbir, 1 ta matbuot anjumani, 1 ta yozma insho tanlovi, 1 ta test sinovlari, 11 ta “Kimyogar” va 1 ta “Nuqtai nazar” gazetalarida maqolalar, 9 ta seminar-treninglar, 46 ta umumiy profilaktik tadbirlar o‘tkazilib, korxonada rasmiy saytiga joylashtirish ishlari amalga oshirildi.

O'tgan hisobot davrida o'tkazilgan 12 ta xizmat surishtiruvlari jarayonida aniqlangan 6 nafar salbiy holatlar bo'yicha to'plangan hujjatlar qonuniy ko'rib chiqilishi uchun prokuratura idoralariga yuborildi. Shuningdek, 5 nafar xodimlar bilan xizmat shartnomalari bekor qilindi, 7 nafariga "hayfsan" jazo choralari ko'rildi, 18 nafariga "qattiq ogohlantirish", 12 nafar ishchi-xodimlarning oylik maoshlaridan ma'lum bir foizdagi jarimalar ushlab qolindi.

Kelgusida qoidabuzarliklarga yo'l qo'ymaslik va oldini olish uchun profilaktik tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirib borish hamda korxonada ichki hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

IX. Xulosalar

Amalga oshirilgan 12 nafar ichki xizmat surishtiruvlari davomida aniqlangan holatlar asosan xarid kilingan mahsulotlarni olish vaqtida ro'y bergan salbiy holatlar, o'g'irliklar (**48 mln 336 ming so'm**) va yuklarni jo'natish ishlaridagi kamchiliklar hamda omborlardagi kamomadlar (**2 mlrd. 154 mln 200 ming 741 so'm**) bo'lib, korxonaga jami **2 mlrd 202 mln. 536 ming 741 so'm** moddiy zarar keltirilganligi ma'lum bo'lgan.

O'tgan hisobot davrida o'tkazilgan 12 ta xizmat surishtiruvlari jarayonida aniqlangan 6 nafar salbiy holatlar bo'yicha to'plangan hujjatlar qonuniy ko'rib chiqilishi uchun prokuratura idoralariga yuborildi. Shuningdek, 5 nafar xodimlar bilan xizmat shartnomalari bekor qilindi, 7 nafariga "hayfsan" jazo choralari ko'rildi, 18 nafariga "qattiq ogohlantirish", 12 nafar ishchi-xodimlarning oylik maoshlaridan ma'lum bir foizdagi jarimalar ushlab qolindi.

Shuningdek, monitoring va nazorat tartibidagi tekshiruvlar davomida aniqlangan kamomadlar **2 mlrd. 154 mln 200 ming 741 so'mni** tashkil etadi.

"Farg'onaazot" AJda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati ning 5.4 bandi talablaridan kelib chiqib, korxonaning me'yoriy hujjatida ko'rsatib o'tilgan 210 nafar xodimlar manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha deklaratsiyani to'ldirishdi va deklaratsiyalash natijasida 4 nafar rahbar xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi hamda 6 nafar xodimlarda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi borligi aniqlandi. Mavjud holatlar axlok komissiyasida ko'rib chiqilib, manfaatlar to'qnashuvi bartaraf etildi. O'tkazilgan deklaratsiyalash natijalari korxonada rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan.

O'tkazilgan tahlil ishlari shuni ko'rsatadiki, kompaniya nazorat xizmati tomonidan 2021-yilning shu davrida **10 ta korrupsion holatlar** aniqlanib, **9 ta xizmat surishtiruvlari** o'tkazilgan. Ushbu salbiy holatlar omborlardan tovar-moddiy boyliklarini o'g'irlash, mehnat intizomini qo'pol ravishda bo'zish va

ishlab chiqarilgan mineral o'g'itlarni talon-taroj qilish holatlari bo'lib, keltirilgan moddiy zararlardan **332 mln so'm** undirib olingan.

Korxonada korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga rioya etish hamda olib borilayotgan chora-tadbirlar, profilaktika va o'kuv-dasturi asosida o'kitish ishlari natijasida yil davomida korrupsion xavf-xatarlar darajasini kamayishiga erishildi.

Shuningdek, fuqarolarni ishga olish jarayonida yangi qoidalar va o'zgartirishlar kiritilishi oqibatida bu yunalishdagi korrupsion xavf-xatarlar kamayishiga erishildi.

Jamiyat rahbariyati bilan ko'rilgan choralar natijasida jamiyat sexlarida o'g'irliklar kamayib, mehnat intizomi mustahkamlandi.

O'tkazilgan profilaktik tadbirlar va korxonada rahbariyati tomonidan ko'rilayotgan choralar natijasida jamiyatda bir qator ijobiy o'zgarishlar ko'zatildi. Jumladan, jamiyat ishchi xodimlari o'rtasida mayda tashmachilik, moddiy zarar keltirish holatlari keskin kamaygan. Shuningdek, korxonada rahbariyati tomonidan bayram va turli ma'rifiy, sport tadbirlari davomida ishchi xodimlarni rag'batlantirish ishlari amalga oshirib borilayotganligi natijasida ma'naviy muhit yaxshilanishiga hamda korrupsion holatlarni kamayishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish uchun quyidagilar **taklif** qilinadi:

1) Komplayens-nazorat xizmatini tashqi ta'sirsiz va mustaqil faoliyat olib borishi uchun to'g'ridan-to'g'ri "O'z kimyosanoat" AJ raisiga yoki kuzatuv Kengashiga bo'ysindirish lozim.

2) Jamiyatda rahbarlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning hamda mukofotlash ishlarining haqqoniy va xolisligini ta'minlash maqsadida Komplayens nazorat xizmati boshlig'ini korxonada Boshqaruv Kengashi a'zosi etib tayinlash.

3) Ichki xizmat tekshiruv davrida tashkilotning moliyaviy-xo'jalik yoki boshqa soha faoliyatini o'rganish zarurati to'g'ilganda, korxonada ishlovchi mutaxassislar masalaga noxolis yondoshishlari mumkinligini e'tiborga olib, auditorlar va mutaxassislar fikrini, xulosasini olish uchun tashqaridan jalb qilish va ularga xizmat to'lovini amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish;

4) Xizmat zarurati sababli surovnomasida boshqa davlat idoralaridan (soliq, bojxona, IIB, prokuratura va boshqalar) surovnomasida orqali ma'lumotlarni olish va davlat organlarini javob berishga majburiyatini belgilash;

5) Xizmat vaktida olingan ma'lumotlar asosida operativ tadbir o'tkazish zarurati to'g'riganda (masalan pora berish yoki unga vositachilik qilish) tegishli huquq tartibot organlariga bu haqda xabar berish va ular bilan hamkorlikda tezkor tadbirlarni o'tkazishda hamkorlik qilish;

6) Xizmatning faoliyati natijalari bo'yicha tavsiya qilingan chora-tadbirlarni asossiz bajarmaganlik uchun mas'ul shaxslarni intizomiy va ma'muriy javobgarlikka tortish mexanizmini ishlab chiqish;

7) Xodimlarni xizmati davomida hayoti va sog'ligiga xavf mavjudligini e'tiborga olib, ijtimoiy himoyalash masalalari, ya'ni, uy-joy, avtomashina yoki boshqa hayotiy muammolarni hal etishda imtiyozli kreditlar ajratish, farzandlarini oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishlari uchun imtiyozli kvotalar ajratish;


8) Xodimlarni martabasini, xizmatni mavqeyini ko'tarish maqsadida harbiylashgan kiyim-boshni ishlab chiqish va kiritish.

Tadbirlar rejasi

1. Tovar moddiy boyliklarini sotib olish jarayonida "inson omili"ni cheklash va korrupsiyani oldini olish maqsadida "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun talablari asosida xaridlar amalga oshirilishini nazorat qilish.
2. Kontragentlarning ishonchliligini, shu jumladan, o'tmishda korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etmaganligi, jamiyat tizimidagi korxonalar xodimlari bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini o'rganish.
3. Jamiyat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni imzolanishida korrupsiyaga qarshi ogohlantirish bandini kiritilishini ta'minlash.
4. Har chorakda korxonada tomonidan amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi ma'lumotlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.
5. Bo'sh ish o'rinlari (vakansiyalar) to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida e'lon berib borishni nazorat qilish.
6. Xodimlarni tanlash va ishga olish jarayonini ichki me'yoriy va qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirilayotganligini o'rganish.
7. Korxonada nomzodlarni ishga qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirilgan tizim, malakalarni baholash bo'yicha elektron dastur asosida amalga oshirilishini nazorat qilish.
8. Jamiyat xodimlari tomonidan sovg'a olish yoki berish tartibini me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshirilishini nazorat qilish.
9. Sovg'ani qabul qilishning qonuniyligi to'g'risida shubha to'g'rilgan jamiyat xodimlariga tushuntirish ishlarini tashkil etish.
10. Har chorakda xodimlar tomonidan olingan yoki berilgan sovg'alarni o'rganish va ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish.
11. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amaldagi me'yoriy hujjatlarning ijrosini monitoring qilish.

12. Jamiyat xodimlari tomonidan xayriya va homiylik faoliyatini me'yoriy hujjatlar talablari asosida amalga oshirilishini nazorat qilish.
13. Har chorakda jamiyat tomonidan amalga oshirilgan xayriya va homiylik faoliyatini monitoring qilish va ushbu ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish.
14. Korxonaga yangi ishga kirgan xodimlarga korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan ichki siyosatlar talablarini tushuntirish.
15. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamiyatda qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar talablari asosida xodimlar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, boshqa huquqni muhofaza qilishi idoralari bilan hamkorlikda seminarlar o'tkazish.
16. Jamiyat xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularni huquqiy ongini baholash maqsadida korrupsiya elementlari va kelib chiqish omillarini qamrab olgan savollar asosida test sinovlarini o'tkazish.
17. Korxonada o'quv-dasturi asosida ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga ko'ra barcha rahbar xodimlarni o'qitish ishlarini tashkillashtirish.

“Farg‘onaazot” AJ

Komplaens nazorat xizmati boshlig'i  **G. Jabbarov**
14-dekabr 2022-yil.

Komplaens nazorat xizmatining 2022-yil uchun hisoboti bilan tanishdim:

“Farg‘onaazot” AJ
boshqaruvi raisi
“15” dekabr 2022 yil.



D. Mannonov